

10. Trifonova Z.A. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira. Praktikum. CHEboksari: Izd-vo CHuvash.un-ta, 2015.
  11. Kafedin I.V., YAtmanova V.V. Politicheskaya i ekonomicheskaya geografiya mira. Sankt-Peterburg, 2006.
  12. Lipets YU. G. Pulyarkin V. A., SHlixter S. B. Geografiya mirovogo xozyaystvo. Moskva, 1999.
  13. Maksakovskiy V.P. Geograficheskaya kartina mira. 1.2-chast. M., 2002.
  14. Otamirzaev O. Uzbekistan: priroda, naselenie, ekonomika. T., 2011.
  15. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya stran blijnego zarubejya. Pod red. M.Ratanovoy. –M., 2004.
  16. SHodiev R., Mahmudov E. Jahon iqtisodiyoti. T., 2005.
  17. Komilova N.Q. Mamlakatshunoslik. O'quv-uslubiy majmua. – T., 2015.
  18. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya stran blijnego zarubejya. Pod red. M.Ratanovoy. –M., 2004.
  19. O'zbekiston iqtisodiyoti. Yillik statistiko'plam. T., 2013.
- Internet saytlar:**
20. [www.unep.org](http://www.unep.org) BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi.
  21. [www.undp.uz](http://www.undp.uz) (BMT Taraqqiyot Dasturi Veb-sayti).
  22. [www.gwpcacena.org](http://www.gwpcacena.org)
  23. [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)

**XII. Termiz davlat universiteti Geografiya kafedrasi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

**Fan (modul) uchun ma'sullar:**

- M.Erdanov – geografiya kafedrasining muduri.
- Z.Xolmatov – geografiya kafedrasining o'qituvchisi
- S.Xursanov – geografiya kafedrasining o'qituvchisi

**Taqrizchi:**

M.Usmonov- Samarqand davlat universiteti “ijtimoiy-iqtisodiy geografiya” kafedrasi dotsenti g.f.n

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIJY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



**MAMLAKATSHUNOSLIK**

fanidan

**O'QUV DASTUR**

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar soha  
 Ta'lim sohasi: 120000 - Gumanitar fanlar  
 Ta'lim yo'nalishi: 604 30 00 - Tarjima nazariyasi va amaliyoti

Termiz-2023

Fan/modul kodi MAB242	O'quv yili 2023-2024	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majuriy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Mamlakatshunoslik	60	60
			Jami yuklama (soat) 120

### I. MODUL TAVSIFI

#### (Description)

Mamlakatshunoslik fani mamlakatlarning shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-geografik jihatlarini, ularning tabiati, aholisi, xo'jaligi, madaniyati, ijtimoiy hayotiga doir turli-tuman ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tizimlashtirishni kompleks o'rganuvchi geografik fanlardan biridir.

Ushbu fan orqali talabalar jahonning turli mintaqalari va mamlakatlari, ularning tabiati, aholisi, dini, madaniyati, etnografiyasi, xo'jaligining rivojlanishi xususiyatlari, tashqi iqtisodiy aloqalari, mamlakatlarning dunyo siyosiy xaritasida tutgan o'rni va roli haqidagi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladilar.

### II. Fanning mazmuni

Fanni o'rganishdan asosiy maqsad - talabalarda mamlakatlarning tarixiy-geografik rivojlanishi xususiyatlari, tabiiy-geografik, etnodemografik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga oid bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi talabalgadunyo siyosiy kartasida mintaqalar, davlatlarning tutgan o'rni va roli, davlat tuzumi; davlatlarning tabiiy-geografik shart-sharoitlari, mineral xomashyo, demografik va ishlab chiqarish salohiyati haqida; aholisi, ularning diniy, etnik xususiyatlari; xo'jaligining tavsifi, tarmoqlar va hududiy tarkibi, ijtimoiy hayoti va rivojlanish xususiyatlarini o'rgatishdan iborat.

«Mamlakatshunoslik» fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar:

- mamlakatshunoslik fanining tadqiqot ob'ekti va predmeti, maqsad va vazifalari, fanlar tizimida tutgan o'rni, ilmiy va amaliy ahamiyati, dunyo siyosiy xaritasi va jahon mamlakatlari hamda mintaqalari haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;

- dunyoning siyosiy kartasi va uning shakllanish jarayonlarini, jahon mamlakatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy tiplariga ko'rataniflanishini, dunyo aholisi va uning joylashuvi hamda tadrijiy o'zgarishlarini, aholining etnik, demografik rivojlanishini, xalqaro mehnat taqsimoti, jahon xo'jaligining rivojlanishi qonuniyatlarini geografik o'rganishda ilmiy tadqiqot usullari hamda zamonaviy geografik axborot tizimlarini *bilishi va undan foydalanishi*;

- mamlakat va mintaqalarning shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-geografik jihatlari, ularning tabiati, aholisi, xo'jaligi, madaniyati, ijtimoiy hayotiga oid turli-tuman ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, tizimlashtirish va xulosalar olishko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

«Mamlakatshunoslik» fani geografiya fanlari tizimiga kiruvchi fanlar bilan bir qatorda, tarix, siyosatshunoslik, geoiqtisod kabilar bilan o'zaro bog'liq. Talabalarining mazkur fanlardan olgan nazariy va amaliy bilim hamda ko'nikmalari mamlakatshunoslik fanini o'rganish uchun asos bo'ladi.

Ushbu o'quv kursi ilmiy-tadqiqot institutlariga, oliy, o'rta maxsus, umumta'lim tizimi muassasalariga, ishlab chiqarish va boshqaruv tashkilotlariga malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar beradi. SHU jihatdan «Mamlakatshunoslik» o'quv fani yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi.

Talabalarning «Mamlakatshunoslik» o'quv fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi.

### III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### III.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

##### Asosiy qism

#### 1-mavzu: Kursning predmeti, maqsadi va vazifalari

Mamlakatshunoslik fanining tadqiqot ob'ekti va predmeti, fanlararo aloqalari. Tadqiqot usullari. Mamlakatshunoslikning qonuniyatlari va tamoyillari. Mamlakatshunoslik va mintaqashunoslik: o'zaro aloqadorligi va farqlari.

#### 2-mavzu: Dunyo siyosiy xaritasi va uning rivojlanish xususiyatlari

Davlatlilik nazariyasi va konsepsiyalari. Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi. Mamlakatlar va ularning boshqaruv shakllari, ma'muriy- hududiy tuzilishi. Dunyosiy kartasining shakllanish bosqichlari. Mamlakatlar turlari. Xalqaro tashkilotlar. Dunyo siyosiy xaritasi va geosiyosiy jarayonlar.

Davlat hududi va chegaralari, ularning bajaradigan vazifalari. Davlatning geografik o'rni va uning ahamiyati. Mamlakatlarining ichki tuzilishi xususiyatlari.

#### 3-mavzu: Jahon mamlakatlarining regional tavsifi

Jahonning mintaqalarga bo'linishi asoslari. BMT tasnifi. Evropa, Evrosiyo va Osiyo mamlakatlari. Afrika, Amerika, Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari.

#### 4-mavzu: Yevropa

*G'arbiy Evropa mamlakatlari.* Germaniya. Fransiya. *SHimoiy Evropa mamlakatlari.* Buyukbritaniya. *SHarqiy Evropa mamlakatlari.* Polsha. Rossiya. *Janubiy Evropa mamlakatlari.* Italiya, Ispaniya.

Mamlakatlarning dunyo siyosiy xaritasida tutgan o'rni va roli. Tarixiy-geografik shakllanishi xususiyatlari. Tabiati, aholisi, dini, madaniyati, etnografiyasi, xo'jaligining rivojlanishi, tashqi iqtisodiy aloqalari. Jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni va roli.

#### 5-mavzu: Osiyo

*G'arbiy Osiyo mamlakatlari.* Isroil, Saudiya Arabistoni, Turkiya. *Kavkazorti mamlakatlari.* Gruziya. *Markaziy Osiyo mamlakatlari.* O'zbekiston, Qozog'iston. *Janubiy Osiyo mamlakatlari.* Hindiston, Eron, Pokiston. *Janubi-*

*sharqiy Osiyo mamlakatlari.* Indoneziya. Malayziya, Tailand. *SHarqiy Osiyo mamlakatlari.* Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy.

Mamlakatlarning dunyo siyosiy xaritasida tutgan o'rni va roli. Tarixiy-geografik shakllanishi xususiyatlari. Tabiati, dini, madaniyati, etnografiyasi. Demografik rivojlanishi xususiyatlari. Xo'jaligi, tashqi iqtisodiy aloqalari. Jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni va roli

#### 6-mavzu: Amerika

*SHimoiy Amerika mamlakatlari.* AQSH, Kanada. *Markaziy Amerika va Karib xavzasi mamlakatlari.* Meksika, Kuba. *Janubiy Amerika mamlakatlari.* Braziliya. Argentina.

Geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi va uning joylashuvi. Mintaqa shakllanishining tarixiy-geografik xususiyatlari. Xo'jaligining umumiy tavsifi. Sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Mintaqaaning ichki tafovutlari.

#### 7-mavzu: Afrika

*SHimoiy Afrika mamlakatlari.* Misr, Jazoir, Marokash. *G'arbiy Afrika mamlakatlari.* Negeriya. *Markaziy Afrika mamlakatlari.* Markaziy Afrika Respublikasi, Kongo Demokratik Respublikasi. *SHarqiy Afrika mamlakatlari.* Keniya, Mozambik. *Janubiy Afrika mamlakatlari.* JAR.

Iqtisodiy geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Demografik rivojlanishi. Mintaqaaning tarixiy-geografik va madaniy xususiyatlari. Xo'jaligining umumiy tavsifi.

#### 8-mavzu: Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari

Avstraliya, Yangi Zelandiya. Okeaniya. Tabiiy sharoiti. Aholisi. Xo'jaligining umumiy tavsifi. Global isish va dunyo okeani sathining ko'tarilishi xavfi. Okeaniya davlatlari rivojlanishining asosiy muammolari.

## Amaliy mashg'ulotlarning tashkil etish bo'yicha

### tavsiya va ko'rsatmalar

Amaliy mashg'ulotlar davomida jahon, mintaqalar va davlatlar bo'yicha karta, jadval va statistik ma'lumotlarni to'playdilar va tahlil qiladilar va turli karta - sxema, grafikli topshiriqlarni bajaradilar.

### Amaliy mashg'ulotlarning tahminiy mavzulari:

1. Dunyo siyosiy xaritasida ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlarni joylashuvini o'rganish va tahlil qilish
2. Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarni mamuriy hududiy bo'linishi va boshqaruv shakllarini o'rganish
3. Jahon mamlakatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra guruhlariga bo'linishi
4. Jahonda ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar geografiyasi
5. Jahon mamlakatlarning demografik rivojlanish xususiyatlari
6. Yevropa mamlakatlari geografiyasi
7. Osiyo mamlakatlari geografiyasi
8. Amerika mamlakatlari geografiyasi
9. Afrika mamlakatlari geografiyasi
10. Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari geografiyasi
11. AQSH
12. Buyuk Britaniya
13. Kanada
14. Hindiston
15. O'zbekiston

*Izoh:* O'quv kursining ishchi dasturini tuzish jarayonida mazkur mavzular ro'yxatidan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soat hajmiga mos holda mavzular tanlab olinadi.

## VI. Ta'lim natijalari (Kashbiy kompetensiyalari)

### Learning Outcomes (Professional Competences)

Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi; tabiiy resurslar va ularning jahon mamlakatlari, mintaqalari bo'yicha taqsimlanishi mamlakatlarning geografik joylashuvi va tabiiy, iqlimi; davlat tuzilishi, siyosiy partiyalar; iqtisodiy, transport kommunikatsiyalari; jahon aholisi va uning joylashuv xususiyatlari; jahon dimlari; dunyo aholisining etnik xususiyatlari; dunyo aholisi; ko'chirilgan kapitalizm davlatlari.

-dunyoning siyosiy kartasi va unda iqtisodiy-ijtimoiy mintaqalar va davlatlarning vujudga kelishi va joylashuv xususiyatlarini bilishi;

- xalqaro geografik mehnat taqsimoti, jahon xo'jaligi va uning taraqqiyoti, unda mamlakatlarning tutgan o'rni, salohiyati va roli, jahon aholisi, sanoati, qishloq xo'jaligi, transportini tushuntira olishi;

-jahon mamlakatlari xo'jaligi, sanoati va qishloq xo'jaligi, -O'zbekistonning dunyo siyosiy kartasida tutgan o'rni va roli, geosiyosiy salohiyati, tabiiy sharoit va boyliklari, demografik vaziyati, iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish xususiyatlari va muammolariga oid ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak

## VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and) methods:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar.

## VIII. Kreditlarni olish uchun talablar

### (Requirements for obtaining loans):

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.

## IX. TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (LIST OF RECOMMENDED LITERATURE)

### Asosiy adabiyotlar

1. Mironenko N.S. Stranovedenie: Teoriya i metodyi: Ucheb.posobie dlya vuzov.M.:Aspekt,2001.
2. Mashbits YA.G.Osnovy stranovedeniya.M.,1999.
3. Sodiqov S. Mamlakatshunoslik asoslari. T., 2011.
4. Sotsialno-ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira. Pod red. V.V.Volskogo. M., 2003.
5. Ekonomicheskaya sotsialnaya i politicheskaya geografiya mira. Pod. Red. I.A.Rodionovoy.M.:YURAYT., 2015.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

6. Maksakovskiy V. P. Vsemirnoe kulturnoe nasledie. - M., 2000.
7. Mashbits YA. G. Kompleksnoe stranovedenie. - M.; Smolensk, 1998.
8. Dmitrievskiy YU. D. Stranovedenie i geografiya mejdunarodnogo turizma. - Spb., 1997.
9. Sapojnikova E.N. Stranovedenie: Teoriya i metodika turisticheskogo izucheniya stran: uchebnoe posobie dlya studentov vysshix uchebnykh zavedeniy. - M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2004.